E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

Aholi turmush darajasi ko`rsatkichlari o`rganish

Umarova M.A.
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Statistika kafedrasi dosenti i.f.d
Sufiyeva Xusniya Soxibjonovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti magistranti

Annotatsiya: Maqolada etakchi olimlarning fikrlari, BMT tomonidan o`rganilgan tadqiqotlar materiallari asosida aholi turmush tarsi ko`rsatkichlarining asosiy bo`limlari va yo`nalishlari haqida fikrlar bayon qilingan va mazkur masala bo`yicha hamkor mamlakatlardagi holatlar tahlil etilib O`zbekiston amaliyoti uchun turmush darajasini belgilab beruvchi asosiy ko`rsatkichlar tasnifi tavsiya etilgan.
Tayanch iboralar: Aholi daromadlari, nominal daromad, real daromad, Lorens egri chizig‘i, kambag‘allik chegarasi, aholining pul daromadlari va xarajatlari balansi, aholining moddiy ne’matlar iste’moli, aholining ma’naviy – ma’rifiy darajasi, “iste’mol savati”, kambag‘allik chegarasi, kambag‘allik koeffitsienti.

Aholining turmush darajasi insonlarning moddiy, manaviy ma’rifiy ehtiyojlarini qondirish jarayonlarini ifodalovchi ko‘p qirrali, murakkab ijtimoiy-iqtisodiy kategoriyadir.

Turmush darajasi aholi daromadlari, xarajatlari, iste’mol darajasi va uning tarkibi, uy-joy bilan ta’minlanganligi va shu kabilarni qamrab oladi. Shuning uchun ham iqtisodiy adabiyotlarda aholi turmush darajasini turli ko‘rsatkichlar tizimi bilan ifodalab, ularni turli belgilar bo‘yicha guruhlarga ajratganlar.

Bu tizim quyidagi asosiy bo‘limlarni o‘z ichiga oladi:
-umumlashtiruvchi sintetik ko‘rsatkichlar;
-aholining moddiy ehtiyojlarini qondirish darajasini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar;
- aholining ma’rifiy
- ma’naviy darajasini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar;
-aholining sotsial sharoitini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar[1] .

Iqtisodchi olim K.Xaqberdiyev “Aholi turmushi tushuncha sifatida keng manodagi 4 yo‘nalishdagi ko‘rsatkichlarni qamrab oladi: aholining sifat ko‘rsatkichlarni, aholining turmush darajasi, ijtimoiy xavfsizlik, atrof-muxitning sifati” deb ko‘rsatib, birinchi yo‘nalish ko‘rsatkichlariga: demografiya, aholini takror ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari, oilalarni shakllantirish qobiliyatlari, ta’lim va kasbiy ma horat darajalarini kiritadi[2]. Рус олими G.S. Sherstneva o‘zining “Sotsialnaya statistika” kitobida Rossiya Federatsiyasi hukumati va butun Rossiya birlashgan kasaba uyushmalari 2004-yil 29-dekabrda kelishib tuzilgan shartnomada aholi turmush darajasini ifodalash uchun 35 ta ko‘rsatkich olinganligini алоҳида таъкидлаган. Bu ko‘rsatkichlar ichida mamlakatning iqtisodiyotini ifodalovchi yalpi ichki mahsulot, asosiy kapitalga investitsiya, budjetning ijtimoiy sohaga xarajatlari, doimiy aholi soni kabi ko‘rsatkichlar bilan bir vaqtda, aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan juda ko‘p o‘rtacha iqtisodiy ko‘rsatkichlar ham keltirilgan.

Albatta bu ko‘rsatkichlar aholining turli qatlamlarini turmush darajasini to‘liqroq ifodalaydi. Lekin bu ko‘rsatkichlarning ayrimlari mohiyati jihatidan bir-biriga juda yaqin yoki ular bir-biriga qarama-qarshidir. Shuning uchun ham bunday ko‘rsatkichlarning birini aniqlasa ikkinchi ko‘rsatkichni aniqlash qiyin bo‘lmaydi.

BMT turli mamlakatlarda qo‘llanilayotgan turmush darajasi ko‘rsatkichlarini o‘rganib, uning darajasini ifodalovchi quyidagi asosiy ko‘rsatkichlarni tavsiya etgan:

- Tug’ulish, vafot etish va boshqa aholini harakterlaydigan ko‘rsatkichlar;
- turmushning sanitariya-gigiyena sharoitlari;
- oziq-ovqat mahsulotlarini iste’mol qilish;

E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

- turar joy sharoitlari;
- ta’lim va san’at;
- mehnat sharoiti va bandlik;
- aholi daromadlari va xarajatlari;
- yashash qiymati va iste’mol baholari;
- transport vositalari;
- dam olishni tashkil etish;
- ijtimoiy ta’minot;
- insonning erkinligi.

Demak, yuqoridagilardan shunday xulosa chiqarish kerakki, aholi turmush darajasi juda murakkab, ularning yashashi va faoliyat yuritishining turli tomonlarini ifodalovchi kategoriya (tushuncha) bo‘lib, faqat juda ko‘p ko‘rsatkichlar bilan to‘liq ifodalash mumkin. Bu ko‘rsatkichlarni turli belgilari bo‘yicha guruhlarga ajratish mumkin.

A. Aholining ijtimoiy-demografik ko‘rsatkichlari: bularga aholi soni, jinsi, yoki, tug‘ulish, vafot etish kabi ko‘rsatkichlar kiradi.

Б. Aholining moddiy iste’molini ifodalovchi ko‘rsatkichlar. Ularga aholining oziqovqat va nooziq-ovqat bilan ta’minlanganligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar kiradi.

В. Aholining ta’limi, manaviy-madaniy salohiyatini ifodalovchi ko‘rsatkichlar: Ularga maktablar, kasb-hunar kollejlari, oliy o‘quv yurtlari bilan qamrab olinganligi, teatr, kino, kitoblar va shu kabilar bilan ta’minlanganligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar kiradi.

Г. Aholining sog‘lig‘i va sanitariya-gigiyena holatini ifodalovchi ko‘rsatkichlar. Bularga shifoxonalar, vrachlar, dam olish uylari, kasalxonalar bilan ta’minlanganligini ifodalovchi, aholining sog‘lik darajasini ifodalovchi ko‘rsatkichlar kiradi.

Bu ko‘rsatkichlarni mamlakatning barcha aholisi bo‘yicha, aholining ayrim guruhlari (ishchi, xizmatchi, dehqon va shu kabi) bo‘yicha hududlar, hamda tarmoqlar bo‘yicha aniqlash lozim bo‘ladi.

Aholining turmush darajasini ifodalovchi umumlashtiruvchi ko‘rsatkichlarga professor Yo.Abdullayev quyidagilarni kiritgan:

-jon boshiga to‘g‘ri kelgan sof milliy daromad;
-nominal va real daromad indekslari;
-turmush qiymati indeksi;
-inson barkamolligi indeksi;
-qashshoqlik indeksi;
-aholi pul daromadlari va xarajatlari balansi;
-yashash minimum va boshqalar[1] .

Шунингдек, professor Yo.Abdullayev oila daromadini 3 guruhga: mehnat bilan olingan daromad, mulkdan kelgan daromad, davlatning birlamchi daromadi kabilarga bo‘ladi.

Professor M.K.Pardayev oila daromadlarini 5 guruhga bo‘lishni maqsadga muvofiq deb, quyidagilarni ko‘rsatadi[2] :

1. Mehnat qilish yo‘li bilan olinadigan daromad;
2. Tadbirkorlik yo‘li bilan olinadigan daromad;
3. Mulkni ishlatish orqali olinadigan daromad;
4. Davlat tomonidan beriladigan daromad;
5. Huquqiy va jismoniy shaxslar tomonidan beriladigan xayriyalar, sovg‘alar va boshqa muruvvatlar.

Aholi daromadlarining asosiy turlaridan biri mehnat haqqidir. Xodimlar bajargan ishlarining miqdori va sifatiga qarab, vaqtbay yoki ishbay shakllarida ish haqqi oladilar. O‘zbekistonda yagona tarif setkasi (YATS) joriy qilingan bo‘lib, budjet qaramog‘idagi muassasalar xodimlari YATS asosida mehnat haqqi oladilar. Nodavlat sektorida faoliyat yurituvchi xodimlarga mehnat haqqi hisoblashda ham YATSga asoslaniladi, lekin korxonaning

E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

moliyaviy ahvoli yaxshi bo‘lsa, YATSga nisbatan ko‘proq maosh to‘lashi ham mumkin. YATSda barcha ishlarga haq to‘lash 0 dan 22 razryadgacha bo‘lingan bo‘lib, har bir razryadga tegishli ta’rif koeffitsiyenti belgilangan. Vaqtbay shaklida oylik maosh oladigan xodimlarga ish haqqi razryadiga to‘g‘ri keladigan ta’rif koeffitsiyentni amaldagi minimal ish haqqi miqdoriga ko‘paytirib topiladi. Minimal ish haqqi miqdori Respublika Prezidenti farmoni bilan bir necha bor oshirib kelinmoqda.

Prezident Sh. Mirziyoyevning “O`zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to`g`risida”gi 2018 yil 29 iyundagi farmoniga asosan soliq tizimi soddalashtirildi. 2019 yildan boshlab aholi mehnat haqidan ushlanadigan soliq stavkasi 12,0% qilib belgilandi. Soliqdan tashqari ish haqidan Pensiya jamg`armasi uchun 8% majburiy sug`urta to`lovi ushlanr edi. Bu majburiy sug`urta to`lovi 2019 yildan bekor qilindi. Shunday qilib, aholining mehnat haqi hajmi oshirilishi bilan bir vaqtda soliq ushlanmasi ham kamayib, mehnat haqi bo`yicha oladigan daromadi ham ko`paymoqda.

Aholi xarajatlari ham turli xil bo‘ladi. Ularning eng asosiylari iste’mol tovarlari sotib olish uchun ishlatiladi. Bundan tashqari, turli xil xizmatlar uchun to‘lovlar, majburiy va ixtiyoriy to‘lovlar, uy joylarni sotib olish va saqlash xarajatlari. Aholining daromadlari va xarajatlari asosan turli oilalarning budjetini maxsus tanlama kuzatish natijasida olinadi. Mintaqalar bo‘yicha aholining pul daromadlari va xarajatlari balansi tuziladi. Aholining xizmatlar uchun to‘lovlariga transport, gaz, svet, suv va boshqa kommunal-maishiy xizmatlariga to‘lanadigan to‘lovlar kiradi. Bunday xarajatlar is’temol tovarlari uchun qilinadigan xarajatlaridan keyin ikkinchi o‘rinda turadi. Majburiy to‘lovlariga aholi to‘laydigan turli xil soliqlar, ixtiyoriy to‘lovlarga sug‘urta va boshqa to‘lovlar kiradi. Aholining uy-joy sotib olish va ularni saqlash xarajatlari har bir kishiga to‘g‘ri keladigan, uy joy har bir oilaga to‘g‘ri keladigan uy-joy maydoni metr kvadrat bilan hisoblanadi. Ma’lumotlarga qaraganda Respublika aholisiningo‘rtacha xarajatlari 47,0% oziq-ovqat mahsulotlariga, 32,0 % esa nooziq-ovqat mahsulotlariga to‘g‘ri keladi.

Iste’mol ham iqtisodiy ham ijtimoiy ko‘rsatkichdir. Iqtisodiy ko‘rsatkich deyishimizga asos, iste’mol takror ishlab chiqarishning oxirgi bo‘g‘inidir. Iste’mol bir tomondan ishlab chiqarish va taqsimlash, ikkinchi tomondan aholi daromadiga bog‘liqdir. Iste’mol ko‘rsatkichini, ijtimoiy deyishimizga asos iste’mol hayotni takrorlanishi uchun eng zaruriy shartdir. Jamiyat a’zolarining moddiy va ma’naviy ihtiyoji iste’mol natijasida qondiriladi. Milliy daromad iste’mol va jamg‘arishga sarflanadi. Milliy daromadning iste’mol qismi: uy xo‘jaligining (aholining) pirovard iste’moli; davlat muassasalarining pirovard iste’moli (ma’orif, madaniyat, sog’liqni saqlash internat) va uy xo‘jaligiga xizmat qiluvchi tashkilotlarining pirovard iste’molidan tashkil topadi. (Kasaba uyushma, diniy tashkilotlar, siyosiy partiya turli fondlarning aholiga xarajatlari).

Uy xo‘jaligining pirovard iste’moliga tovarlar sotib olish va xizmatlar haqqini to‘lash uchun ketgan xarajatlar: oziq-ovqat, kiyim-kechak sotib olish; uy-joykommunal xizmatlar haqqini to‘lash; transport, kino-teatr, aloqa xizmatlari haqqi; majburiy va ko‘ngilli to‘lovlar: soliqlar, ijtimoiy sug‘urta jamg‘armasiga, kasaba uyushma badali: tibbiy xizmatlar kiradi. Aholi iste’moliga natura shaklida berilgan iste’mol mahsulotlari, o‘z tomarqa xo‘jaligida etishtirib, iste’mol qilingan mahsulotlar ham kiritiladi.

Uy xo‘jaligi xarajatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar uch xil manbalar orqali olinadi.

1. Maxsus oila budjetini tanlab kuzatish natijasida.
2. Aholining daromadlari va xarajatlari balansini tuzish orqali.
3. Maxsus hisob-kitoblar bo‘yicha.

Maxsus tanlab kuzatish yo‘li bilan va sotilgan mahsulotlar hajmi asosida asosiy oziq-ovqat mahsulotlarining aholi tomonidan iste’mol miqdorini aholining o‘rtacha soniga bo‘lib, jon boshiga to‘g‘ri kelgan iste’mol miqdori aniqlanadi. Maxsus ilmiy muassasalar tomonidan aholining asosiy oziq-ovqat mahsulotlarini bir yilda iste’mol qilish miqdorining fiziologik me’yorlari hisoblangan. Aholining haqqiqiy iste’moli bu me’yorlar bilan taqqoslanib o‘rganiladi. Inson eng avvalo, oziq-ovqat mahsulotlari iste’mol qilib, o‘zining fiziologik ehtiyojini qondiradi.

Inson ehtiyojlarini turli toifaga mansub minglab aholi orqali o‘rgangan olim Maslou insonning birinchi navbatda qorni to‘q bo‘lishi lozim, degan xulosa kelgan. Olimlar insonlarning o‘z kuchlarini tiklashi uchun barcha zarur bo‘lgan elementlarini yetarli darajada ta’minlaydigan oziq-ovqat tovarlari iste’molining meyorlarini hisoblab chiqqan. Statistik ma’lumotlarga qaraganda, respublika aholisi non va non mahsulotlarini, o‘simlik yog‘i kabi mahsulotlarni belgilangan me’yorlardan ko‘p iste’mol qilar ekan, lekin ular iste’molini dinamik o‘rganish kamayish tendensiyasini ko‘rsatayotgan bo‘lsa, ham. Shu bilan bir vaqtda aholi sut va sut mahsulotlarini, tuxumni, mevalarni, ayniqsa baliq va baliq mahsulotlarini belgilangan me’yorlardan ancha kam iste’mol qilar ekan.

Aholining oziq-ovqat mahsulotlari iste’molini statistik o‘rganish, shunday mahsulotlarning Respublikada ishlab chiqarish miqdorining o‘zgarishi bilan birgalikda olib boriladi. Ma’lumki, hukumatimizning aholini non va non mahsulotlari bilan mustaqil ta’minlash maqsadida qilayotgan harakatlari natijasida (ekiladigan yer maydonini ko‘paytirish, navlarini yaxshilash bilan hosildorlikni va sifatni oshirish) bug‘doy yetishtirish ko‘paymoqda. Aholi daromadlari ko‘paygan sari sifatli va qimmatliroq oziq-ovqat mahsulotlarini xarid qila boshlaydi. O'zbekiston aholi soni 1991-2017 yillarda 56,0 %ga ko‘payib, hozir 33 million kishiga yetib qoldi, lekin aholi soniga nisbatan aholi daromadlari yuqori sur’atlar bilan ko‘payganligi sababli, ularning go‘sht va go‘sht mahsulotlari, sut mahsulotlari, mevalar iste’moliga qilgan xarajatlari ko‘payib bormoqda.

Mamlakatimizda qishloq xo‘jaligiga katta e’tibor berilib fermerlik faoliyatini rivojlantirish uchun davlat tomonidan katta imtiyozlar berildi. Fermer xo‘jaliklariga yer maydonlari 50 yil muddatga ijaraga berildi. Ular yangi texnika va texnologiyalar bilan ta’minlash uchun banklardan imtiyozli kreditlar berish va lizing yo‘lga qo‘yildi. G‘alla maydonlari kengaytirildi. Yerlarning melirativ holatini yaxshilash ularning unumdorligini oshirish bo‘yicha budjetdan mablag‘lar ajratildi. Qishloq xo‘jalik mahsulotlarning yangi tezpishar, hosildor navlari yaratildi. Natijada qishloq xo‘jalik mahsulotlarni yetishtirish ko‘paydi.

Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetishtirish barcha turlari bo‘yicha kamida 2 barobardan ko`proq ko‘paygan. Ayniqsa don ekin maydonning ko‘payishi va hosildorligining ortishi natijasida don mahsulotlari yetishtirish 2016 – yilda 1990 yilga nisbatan 4 barobarga ko‘paygan. Shuningdek, ushbu davrda kartoshka yetishtirish 8,5 barobarga, meva va sabzavot yetishtirish 4,0 barobardan ko‘proqga, tuxum tayyorlash 5,0 barobarga, go‘sht va sut tayyorlash esa qariyib 2 barobarga ko‘paygan. 2016 yilda qishloq xo‘jalik mahsulotlaridan yuqori hosil olingan bo‘lib, 8 million 261 ming tonna g‘alla, 3 million tonnaga yaqin kartoshka, 131 million tonnadan ortiq sabzavot va poliz mahsulotlari tayyorlangan. Aholining oziq-ovqat mahsulotlari iste’moli bilan bir vaqtda, nooziq-ovqat mahsulotlari iste’moli ham o‘rganiladi. Ayniqsa, bunda aholining madaniy – maishiy ehtiyojini qondiradigan tovarlar miqdori ko‘payib borsa, turmush tarzining yaxshilanib borayotganligini bildiradi. Shuning uchun har bir oilaga yoki 1000 kishi hisobiga to‘g‘ri keladigan televizorlar, muzlatkichlar, yengil mashinalar, kir yuvush mashinalari kabi tovarlarning to‘g‘ri kelishi aniqlanadi.

Bu ko‘rsatkichning o‘zgarishi aholining turmush darajasini ifodalaydi. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, mustaqillikning dastlabki yillarida O‘zbekiston iqtisodiyoti bir tomonlama, faqat paxta xom ashyosini qisman qayta ishlashga mo‘ljallangan bo‘lib, xalq ehtiyoji uchun tayyor mahsulotlarning ko‘p qismi chetdan keltirilar edi. O‘sha davrda O‘zbekistonda iste’mol qilinayotgan kiyim – kechaklarning 25 % , trikotaj buyumlari va ip gazlamaning 30 %dan ko‘prog‘i, poyafzalning deyarli 50 % chetdan keltirilar edi .1 Shuning uchun ham Hukumatimiz o‘z faoliyati boshidanoq respublikamizning xalq iste’moli mollari jihatidan bunday qaramligini tugatish uchun sharoitlarni yaratishga katta e’tibor qaratdi. Natijada O‘zbekiston mustaqillik yillarida (1990-2016 yillar) yengil sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish 4,6 marta ko‘paydi. Hozirgi paytda to‘qimachilik sanoati korxonalari soni 2200 tadan ko‘proq bo‘lib, ular zamonaviy jihozlar bilan jihozlangan. O‘zbekiston sanoati mustaqillik yillarida mutlaqo yangi mahsulotlar ishlab chiqarishni o‘zlashtirdi.. Shu bilan bir vaqtda aholi daromadlarining oshib borishi ularning

E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

uzoq muddat ishlatiladigan madaniy – maishiy tovarlarni ko‘proq ҳarid qilishida namoyon bo‘lmoqda.

Ҳулоса ўрнида таъкидлаш мумкинки, Ўзбекистонда аҳоли даромадларининг ошиб бориши натижасида унинг ҳаражатлари турлари хам кўпайиб бориши тенденцияси кузатилмоқда. Бу эса мамлакат иқтисодчи олимлари аҳоли турмуш даражасини белгилаб берувчи асосий кўрсаткичларни таснифлаш ва уларни такомиллаштиришга қаратишлари кераклигини тақозо этади.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayev Yo. Makroiqtisodiy statistika: 100 savol va javob. T.: «Mehnat», 1998 y.
2. Pardayev M.K., Shodiyeva G.M. Oila xo‘jaligi iqtisodiyoti va tadbirkorligi. Samarqand SamKI. 2001, 25 bet.
3.To‘xliyev N. va boshqalar. O‘zbekiston iqtisodiyoti asoslari. T.: O‘zbekiston ensiklopediyasi. 2006 y. 269 bet.
4. Sherstneva G.S. Sotsialnaya statistika: konspekt leksiy. M.: EKSMO, 2009. – S. 39-40

WORDLY
KNOWLEDGE